Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	911
Salimova Husniya Rustamovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA.....	918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIYAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срожиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI

Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mehnat iqtisodiyoti kafedrası tayanch doktranti
ORCID: 0009-0005-1195-0778
E-mail: t.bobojonov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning mehnat bozori va kadrlar siyosatiga ta'siri tahlil qilinadi. Global energetika inqirozi, resurslar cheklanganligi va xalqaro savdodagi ekologik talablarning kuchayishi sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omili sifatida an'anaviy bandlik modelidan yuqori samaradorlikka ega "yashil bandlik" modeliga o'tish zaruriyati asoslab beriladi. Tadqiqotda O'zbekiston mehnat bozorida "yashil ko'nikmalar" defitsiti va institutsional infratuzilmaning yetarli darajada moslashmaganligi muammolari aniqlangan. Shuningdek, "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi Qonunning joriy etilishi natijasida iqtisodiyot subyektlari zimmasiga yuklanayotgan yangi malaka talablari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud bandlik mexanizmlarining yetarlicha rag'batlantiruvchi xususiyatga ega emasligi tarkibiy ishsizlik xavfini kuchaytiradi va global raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil bandlik (green jobs), institutsional transformatsiya, yashil ko'nikmalar, dekarbonizatsiya, issiqxona gazlari, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari, tarkibiy ishsizlik, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article examines the impact of structural reforms implemented under the "Green Economy Transition Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2019–2030" on the labor market and human resource policy. In the context of the global energy crisis, resource constraints, and increasingly stringent environmental requirements in international trade, the study substantiates the necessity of transitioning from a traditional employment model to a high-efficiency "green jobs" model. The research identifies key challenges, including the deficit of green skills and the insufficient adaptation of institutional infrastructure in the labor market. Particular attention is given to the implications of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Limiting Greenhouse Gas Emissions," which introduces new qualification requirements for economic entities. The findings indicate that the insufficient incentive capacity of existing employment mechanisms may lead to structural unemployment and reduced global competitiveness.

Key words: green economy, green jobs, institutional transformation, green skills, decarbonization, greenhouse gases, economic incentive mechanisms, structural unemployment, sustainable development.

Аннотация. В статье анализируется влияние структурных реформ, реализуемых в рамках Стратегии перехода Республики Узбекистан к «зеленой экономике» на 2019–2030 годы, на рынок труда и кадровую политику. В условиях глобального энергетического кризиса, ограниченности ресурсов и ужесточения экологических требований в международной торговле обосновывается необходимость перехода от традиционной модели занятости к высокоэффективной модели «зеленой занятости». В ходе исследования выявлены проблемы дефицита «зеленых навыков» и недостаточной адаптации институциональной инфраструктуры рынка труда. Особое внимание уделено анализу влияния Закона Республики Узбекистан «Об ограничении выбросов парниковых газов» на формирование новых квалификационных требований для хозяйствующих субъектов. Результаты исследования показывают, что недостаточная стимулирующая роль существующих механизмов занятости может привести к росту структурной безработицы и снижению глобальной конкурентоспособности.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленая занятость (green jobs), институциональная трансформация, зеленые навыки, декарбонизация, парниковые газы, механизмы экономического стимулирования, структурная безработица, устойчивое развитие.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo'ljallangan “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan fundamental islohotlar 2025-yil yakuniga kelib milliy mehnat bozorida jiddiy tarkibiy transformatsiyalarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri — bu an'anaviy bandlik modelidan “yashil bandlik” (green jobs) modeliga institutsional o'tish bo'lib, 2025-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi taxminan 23–30%ga yetganligi ushbu jarayonni sezilarli tezlashtirdi [3].

Tadqiqotning dolzarbligi 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilish hamda Prezidentning PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi bilan yanada kuchaydi. Ushbu hujjatlar iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va “yashil” transformatsiyani tezlashtirishga qaratilgan bo'lib, mehnat bozoriga yangi ekologik talablarni yuklamoqda [4].

Tadqiqotning obyekt sifatida O'zbekiston iqtisodiyotining energetika, qurilish va qishloq xo'jaligi sektorlaridagi bandlik jarayonlari tanlab olindi, chunki ushbu sohalarida yashil transformatsiya va iqlimga moslashuvga qaratilgan investitsiyalar faol jalb etilmoqda. Tadqiqot predmeti — dekarbonizatsiya sharoitida aholi bandligini ta'minlashning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Izlanishning bosh maqsadi yashil transformatsiya sharoitida bandlikning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda 2026-yilda va keyingi yillarda yaratilishi kutilayotgan ko'p minglab “yashil” ish o'rinlarini iqtisodiy rag'batlantirish drayverlarini ilmiy asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: mehnat bozoridagi “yashil ko'nikmalar” (green skills) defitsitini tahlil qilish, korxonalarning kadrlar tayyorlash xarajatlarini optimallashtirish va tarkibiy ishsizlikning oldini olish bo'yicha metodologik takliflar ishlab chiqish.

Mazkur tahlillar natijasida shakllantirilgan xulosalar milliy mehnat bozorini yashillashtirish strategiyasini takomillashtirishda hamda kadrlar tayyorlash tizimini yangi ekologik talablarga moslashtirishda amaliy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot sharoitida bandlik masalalari xalqaro miqyosda keng tadqiq etilgan. Klassik iqtisodchilar J. Hicks va R. Solow barqaror o'sishning resurslar bilan bog'liqligi va cheklovlarini asoslab bergan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchilardan M. Renner, S. Sweeney va J. Kubit o'z ishlarida “yashil ish o'rinlari” (green jobs) tushunchasini mehnat bozoridagi ekologik transformatsiyaning asosiy indikatori sifatida baholaydilar [5]. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyotga o'tish dastlabki bosqichda an'anaviy tarmoqlarda ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelsa-da, uzoq muddatli istiqbolda qayta tiklanuvchi energiya va resurs tejovchi texnologiyalar hisobiga bandlikning sifatli o'sishini ta'minlaydi.

Mahalliy olimlarimizdan N.M. Mahmudov, D.N. Rahimov, B.X. Umurzakov va Y.K. Olimov O'zbekistonda mehnat bozori infratuzilmasini takomillashtirish, innovatsion iqtisodiyot va aholi bandligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan o'rganishgan [6]. Ushbu tadqiqotlarda asosan mehnat bozorining umumiy iqtisodiy drayverlari va demografik omillarga e'tibor qaratilgan. Biroq so'nggi yillarda yuz bergan ekologik va iqlim siyosati o'zgarishlari, xususan, uglerod birliklari savdosi mexanizmlari va ularning bandlik tarkibiga ta'siri ushbu ishlarning ko'pchiligida yetarlicha chuqur qamrab olinmagan.

Muallifning yondashuvi va tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, yuqoridagi olimlarning ishlaridan farqli o'laroq, mazkur maqolada bandlik mexanizmlari yashil transformatsiya va milliy uglerod bozori sharoitida kompleks tahlil qilinadi. Yashil bandlik nafaqat ekologik omil, balki korxonalarning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlovchi institutsional resurs sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan mehnat bozoridagi “yashil ko'nikmalar” (green skills) defitsitini bartaraf etishda soliq imtiyozlari va emissiya mexanizmlarining uzviy bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan. Bu dekarbonizatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tarkibiy ishsizlikning oldini olishda yangi metodologik yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o'tishning bandlik tarkibiga ta'sirini baholash uchun tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellashirish va ekonometrik tahlil usullaridan kompleks ravishda foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida 2026-yil 9-yanvardan kuchga kirgan “Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi 1073-sonli Qonuni doirasida shakllantirilayotgan milliy uglerod bozori mexanizmlari qabul qilindi.



Investitsiyalarning yashil loyihalarga yo'naltirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratilishi dinamikasini aniqlash maqsadida yashil bandlik elastikligi koeffitsiyenti EgE_gEg hisoblab chiqildi.

Bunda: $Eg = (\Delta L / L) / (\Delta G / G) E_g = (\Delta L / L) / (\Delta G / G) E_g = (\Delta L / L) / (\Delta G / G) E_g$ formulasi orqali yashil sektorlardagi bandlik o'zgarishining $\Delta L / L \Delta L / L \Delta L / L$ yashil texnologiyalarga kiritilgan investitsiyalar o'sishiga $\Delta G / G \Delta G / G \Delta G / G$ nisbati tahlil qilindi.

Shuningdek, korxonalarning dekarbonizatsiya xarajatlari va inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalari o'rtasidagi muvozanatni aniqlash uchun Marginal Abatement Cost (MAC) nazariyasiga asoslangan optimallashtirish modeli qo'llanildi. Bu modelda optimal bandlik darajasi L_{opt} bir birlik uglerod kvotasining bozor narxi P_{cP_cPc} , kadrlarni yashil ko'nikmalarga qayta tayyorlash xarajatlari C_{trainC_train} hamda emissiyani kamaytirish funksiyasi $f(E)f(E)f(E)$ bog'liqligida aniqlanadi.

$$L_{opt} = \arg \max \{ P_c \cdot \Delta E(L) - C_{train}(L) \}$$

ko'rinishida ifodalandi. Bu yerda $\Delta E(L)$ — yangi malakali ishchi kuchini jalb qilish hisobiga emissiyaning qisqarish hajmini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, korxonalarning yashil transformatsiyaga moslashish darajasini aniqlash uchun Yashil bandlik intensivligi (Green Employment Intensity - GEI) ko'rsatkichi joriy etildi:

$$GEI = \frac{\sum_{i=1}^n w_i \cdot L_{g,i}}{L_{total}}$$

Bunda $L_{g,i}$ — i -sohadagi yashil ish o'rinlari soni, w_i — ushbu ish o'rinlarining ekologik samaradorlik vazn koeffitsiyenti va L_{total} — korxonadagi jami ishchilar soni. Tadqiqotda qo'llanilgan qiyosiy taqqoslash usuli yordamida O'zbekiston iqtisodiyotining energetika, sanoat va qurilish sektorlaridagi 2024-2025 yillardagi an'anaviy bandlik ko'rsatkichlari 2026-yilning birinchi choragidagi yangi qonunchilik talablari asosidagi o'zgarishlar bilan o'zaro qiyoslandi.

Ma'lumotlar bazasini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Statistika agentligining 2025-yil yakuniy hisobotlari, shuningdek, uglerod birliklari reyestriga kiritilgan 150 ta yirik sanoat korxonasining real iqtisodiy ko'rsatkichlari asos qilib olindi.

Bunday metodologik yondashuv yashil transformatsiya sharoitida yuzaga keladigan tarkibiy ishsizlik xavfini miqdoriy jihatdan baholash va "yashil ko'nikmalar" (green skills) defitsitini bartaraf etish bo'yicha aniq prognozlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarning ishonchiligi O'zbekiston milliy mehnat bozoridagi 2026-yil mart holatiga ko'ra mavjud bo'lgan real statistik drayverlar hamda dekarbonizatsiya strategiyasining maqsadli indikatorlari bilan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotining yashil transformatsiyasi sharoitida bandlik dinamikasini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2025-yilda yashil sektorlarga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 18%ga oshib, sezilarli o'sish kuzatilgan [7].

Ushbu investitsion oqim natijasida metodologiyada keltirilgan yashil bandlik elastikligi koeffitsiyenti EgE_gEg energetika sohasida 0,42ni, qurilish va sanoatda esa o'rtacha 0,35ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich shuni isbotlaydiki, yashil texnologiyalarga kiritilgan har 1% qo'shimcha investitsiya energetika sohasida bandlikning 0,42%ga o'sishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot doirasida uglerod birliklari reyestriga kiritilgan 100 dan ortiq yirik sanoat korxonasi faoliyati tahlil qilinganda, O'zbekiston Respublikasi 1073-sonli Qonuni kuchga kirgandan so'ng (2026-yil yanvar) korxonalarning ishchi kuchi tarkibida sifat o'zgarishlari boshlangani aniqlandi. Xususan, korxonalarning yashil bandlik intensivligi GEI ko'rsatkichi o'rtacha 0,14dan 0,22gacha ko'tarildi.

Biroq tahlillar natijasida aniqlangan asosiy muammo — bu "yashil ko'nikmalar" (green skills) defitsitidir. Jahon banki so'rovnomaalariga ko'ra, sanoat korxonalarining 65% qismi dekarbonizatsiya va emissiya monitoringi bo'yicha malakali muhandislarga o'ta yuqori ehtiyoj sezayotganini qayd etgan.

Quyidagi jadvalda 2025–2026-yillar oralig'ida asosiy drayver tarmoqlardagi bandlik o'zgarishi dinamikasi muallif hisob-kitoblari asosida keltirilgan:

1-jadval. Yashil iqtisodiyot drayver tarmoqlarida bandlik ko'rsatkichlari dinamikasi (2025-2026 yillar)¹

Tarmoqlar nomi	Yashil investitsiyalar ulushi (%)	Yashil ish o'rinlari (ming kishi)	O'sish sur'ati (2026-yil I-chorak, %)
Qayta tiklanuvchi energetika	42%	18.5	+22.4%
Yashil qurilish va energiya audit	28%	12.2	+15.8%
Ekologik toza transport	15%	8.4	+10.2%
Chiqindilarni qayta ishlash	15%	10.9	+12.5%

Diagrammalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, uglerod birliklari bozorining (carbon market) shakllanishi korxonalar uchun iqtisodiy bosimni yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar natijasida aniqlangan mavjud muammolar quyidagilardan iborat:

birinchidan, uglerod birliklarini hisobga olish bo'yicha professional kadrlar tayyorlash tizimi yangi O'zbekiston Respublikasi 1073-sonli Qonuni talablaridan orqada qolmoqda;

ikkinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yashil ish o'rinlari yaratishda soliq preferensiyalarining murakkab mexanizmi saqlanib qolmoqda;

uchinchidan, an'anaviy energiya sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarda 2026-yil oxiriga kelib past malakali ishchi kuchining 12–15%ga qisqarishi natijasida tarkibiy ishsizlik xavfi mavjud.

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijalari O'zbekiston mehnat bozorida miqdoriy o'sishdan ko'ra sifatli transformatsiya jarayoni ustuvor ekanligini isbotlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotining yashil transformatsiyasi sharoitida bandlikning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, 2026-yil 9-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi 1073-sonli Qonuni milliy mehnat bozorida mutlaqo yangi sifat bosqichini boshlab berdi, bu esa korxonalardan dekarbonizatsiya bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni talab etmoqda.

Ikkinchidan, o'tkazilgan iqtisodiy-matematik tahlillar yashil bandlik elastikligi koeffitsiyenti $E_g=0,42$ $E_g=0,42$ energetika sohasida yuqori ekanligini, biroq kadrlar tayyorlash tizimi va real sektor ehtiyojlari o'rtasida 65% darajasidagi nomutanosiblik (skills gap) mavjudligini ko'rsatdi.

Uchinchidan, uglerod birliklari bozorining shakllanishi an'anaviy energiya sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarda 2026-yil yakuniga kelib past malakali ishchi kuchining 12–15%ga qisqarishi bilan bog'liq tarkibiy ishsizlik xavfini yuzaga keltirmoqda [8].

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etish va yashil bandlik drayverlarini faollashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Institutsional darajada: O'zbekiston Respublikasi 1073-sonli Qonuniga asosan tashkil etilgan uglerod birliklari reyestri ishtirokchisi bo'lgan 150 ta yirik korxona uchun "Yashil kadrlar audit" (Green HR Audit) tizimini joriy etish lozim. Bu korxonalarga dekarbonizatsiya jarayonida kadrlar tanqisligini oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy rag'batlantirish sohasida: yashil ish o'rinlari ulushini oshirgan (GEI koeffitsiyenti 0,25dan yuqori bo'lgan) korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasini tabaqalashtirilgan holda kamaytirish yoki uglerod kvotalari savdosida qo'shimcha imtiyozli koeffitsiyentlarni α alphas qo'llash mexanizmini joriy qilish taklif etiladi.

Ta'lim va malaka oshirish tizimida: 2026-yilgi mehnat bozori talablaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida "Uglerod menejmenti" va "Yashil audit" yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli qayta tayyorlash kurslarini (micro-credentials) yo'lga qo'yish zarur. Bu an'anaviy sektorlardan bo'shagan ishchi kuchini operativ ravishda qayta yo'naltirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya mexanizmi: tarkibiy ishsizlik xavfi ostida qolgan ishchilar uchun "Yashil o'tish sug'urtasi" (Just Transition Fund) jamg'armasini tashkil etish, bu orqali ularning yangi ko'nikmalarni egallash davridagi daromadlarini kompensatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan institutsional va iqtisodiy chora-tadbirlar O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda mehnat bozorining barqarorligini ta'minlaydi hamda aholi daromadlarining sifatli o'sishiga xizmat qiladi.

¹ Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida yaratilgan

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-iyuldagi "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida" O'RQ-1073-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-7616051>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston–2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-16-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7369703>
5. Renner M., Sweeney S., Kubit J. Green Jobs: Towards Decent Work in a Sustainable, Low-Carbon World. — Geneva: United Nations Environment Programme (UNEP); International Labour Organization (ILO), 2008. — URL: <https://www.ilo.org/publications/green-jobs-towards-decent-work-sustainable-low-carbon-world-full-report>
6. Mahmudov N.M., Rahimov D.N., Umurzakov B.X., Olimov Y.K. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori infratuzilmasini takomillashtirish va aholi bandligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar (turli yillardagi maqolalar va monografiyalar).
7. World Bank Group. Uzbekistan Country Climate and Development Report (CCDR). — Washington, DC: World Bank, 2025.
8. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook: Trends 2026. Greening the Labor Market and Structural Unemployment Risks. — Geneva: ILO Publishing, 2026.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>